



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI FAXRIYSI VA GEMATOLOG ERGASH ISABOEVICH ATAXANOVNING ILMYIY PEDAGOGIK ISHLARI

Qurbonmurodov Axmadshoh Sobirovich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 215 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Toshkent Tibbiyot Akademiyasi faxriysi, biofizik, onkolog, terapevt Ergash Isaboevich Ataxonovning hayoti va ilmiy-pedagogik ishlari haqida yoritiladi. Uning asosiy mutaxassisligi gematologiya sohasi bo'lib, bu sohada bir qancha yutuqlarga erishgan. Toshkent Tibbiyot institutining Muso Ilich Slonim rahbarligidagi terapevtik poliklinikasi aspiranti bo'lgan. E.I. Ataxonov O'zbekiston gematologiya va qon quyish ilmiy tadqiqot institutiga direktor etib tayinlangandan so'ng tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo'ladi. Urush davrida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan birga tibbiy yordam bilan birga tashkilotchilik qobiliyati ham namoyon bo'ldi, ya'ni evakuatsiya gospitalaridan yarador askarlarni yetarli miqdorda donor qon bilan ta'minlay oladi. U nafaqat gematologiya sohasi balki bitinchilardan vitaminlarning singishida muhim bo'lgan rentgenologik usulni qo'llagan, gemapotiyani ham o'rgangan. Barcha ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qila olgan I.A. Ataxonov bugungi yosh avlogda ibrat bo'ladigan fazilatlar bilan yodimizda qolgan.

Kalit so'zlari: terapevt, gematolog, rentgenologik usul, Sog'liqni saqlash vazirligi kengash raisi, fermentativ jarayonlar, gematopoetik tizim, Ataxonov nomidagi stipendiya.



Biofizik, onkolog, terapevt va iqtidorli gematolog Ergash Isaboevich Ataxonov 1914-yil 11-sentabrda dehqon oilasida tug'ilgan. 1931 yilda Namangan tibbiyot xodimlari fakultetini tamomlagach, 1936- yilgacha Toshkent tibbiyot institutida tahsil oladi. 1937- yildan boshlab shu institutning aspiranturasida tahsil oladi. 1941 yilda "Anemiyaning turli shakllarining patogenezi va klinik ko'rinishi bo'yicha materiallar" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi.

1942- yilga kelib O'zbekiston Gematologiya va qon quyish ilmiy- tadqiqot institutiga direktor etib tayinlanish orqali uning tashkilotchilik qobiliyati ham namoyon bo'ladi ya'ni o'sha paytlardagi evakuatsiya gospitalaridan yarador askarlarni yetarli miqdorda donor qon bilan ta'minlay oladi. Gematologiya sohasidagi ishlari hisobga olinib 1944-yil E.I. Ataxonov Moskvadagi tibbiyot fanlarini oshirish markaziy instituti doktoranturadiga yuborilib, taniqli ilmiy gematologlar Aleksandr Nikolaevich Kryukov va Losif Abramovich Kassirskiy rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. O'zbekistonga qaytib dastlab gospital terapiya kafedrasini mudiri va shu bilan bir vaqt



Toshkent tibbiyot Akademiyasi fan bo'yicha prorektor bo'lib ishlagan. 1951- yil Ichki kasaliklar propedivtikasi kafedrasini mudiri bo'ladi. 1962- yilda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ilmiy tibbiyot kengashi raisi. Olim birinchi bo'lib temir va B12 vitamining singishida rentgenologik usul qo'llagan, ovqat hazm qilishda fermentativ jarayonlarini va gemapotiyani o'rgangan. Bu yutuqlaridan so'ng Toshkent fanlar akademiyasiga muxbir a'zosi bo'ladi va Fransiya Yaponiya va boshqa davlatlarda bo'lib ilmiy ishini muvafaqqiyatli himoya qiladi. 100 dan oshiq maqolalar yozgan.

E. I. Ataxanovning asosiy ilmiy-pedagogik faoliyati gematologiya, mintaqaviy patologiya va ovqat hazm qilish organlari patologiyasi sohasidagi masalalar bilan bog'liq edi. Uning rahbarligida iqlim jaziramasida jigar patologiyasi va metabolik jarayonlar o'rganildi, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarida gematopoetik tizimdagi o'zgarishlar ko'rsatildi, malign anemiya, eritremitiya va leykemiya patogenezi mexanizmlari tizimlashtirildi. E.I. Ataxanov Sovet Ittifoqida birinchilardan bo'lib ichki a'zolar kasalliklarini davolashda oqsil gidrolizatlarini, surunkali gepatitni davolashda lipotrop moddalarni qo'llagan. Uning yuksak iqtidori va qilgan ilmiy ishlarini hisobga olgan holda O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan Toshkent tibbiyot akademiyasida ham "Ataxanov" nomidagi stipendiya ta'sis etilgan. O'tgan yilning o'zidayoq 166 nafar Toshkent tibbiyot akademiyasining iqtidorli talabalari nomdor stipendiyalarga loyiq ko'rilgan.

Ergash Isaboevich Ataxanov 1967- yil 11- mayda 53 yoshida Toshkent shahrida vafot etadi.

1. Большая медицинская энциклопедия / гл. ред. Б. В. Петровский. — 3-е изд. — М.: Советская энциклопедия, 1986. — Т. 2. — 576 с.
2. К патогенезу важнейших заболеваний кроветворной системы / проф. Э. И. Атаханов. - Ташкент : Госиздат УзССР, 1952. - 212 с.
3. На Конгрессе врачей во Франции. - Ташкент : Узмедгиз, 1959. - 50 с.
4. Об амёбных и неамёбных колитах / Чл.-кор. АН Узбек. ССР проф. Э. И. Атаханов. - Москва : Медгиз, 1961. - 8 с. - (Доклад на Конференции, посвященной болезням в странах с жарким климатом. Сентябрь 1961 г. Ташкент/ М-во здравоохранения СССР).
5. Sobre las colitias amebianas y no amebianas / Miembro numerario de la Acad. de ciencias de Usbekia prof. E. I. Atajanov. - Moscú : Medgiz, 1961. - 7 с.; 21 см. - (Comunicaciones a la Conferencia dedicada al estudio de las enfermedades de los paises cálidos. Sept. de 1961. Tashkent / Ministerio de sanidad de la URSS).
6. Александр Николаевич Крюков / Чл.-кор. АМН СССР и АН УзССР проф. Э. И. Атаханов. - Ташкент : Медицина, 1964. - 15 с.
7. Хронические заболевания кишечника / Проф. Э. И. Атаханов. - Ташкент : Медицина, 1965. - 54 с.



8. Сердечно-сосудистые заболевания и их предупреждение / Проф. Э. И. Атаханов. - Ташкент : Медицина, 1970. - 126 с.